

**PAST KONSENTRATSIYALI SIRKA KISLOTASI TA`SIRIDA 3 OYLIK OQ
ZOTZIZ KALAMUSHLAR INGICHKA ICHAK DEVORIDAGI
MORFOLOGIK O`ZGARISHLARNI O`RGANISH.**

Hamroyeva Lola Rizoyevna
Buxoro davlat tibbiyat instituti
Anatomiya va klinik anatomiya
(OXTA) kafedrasi assistenti
[*lolahamroyeva57@gmail.com*](mailto:lolahamroyeva57@gmail.com)

ANNOTATSIYA

Oshqozon ichak traktining kimyoviy kuyishlarini o`rganishda faol davom etayotgan tadqiqotlar ushbu muammoning murakkabligini va uning dolzarbligini tasdiqlaydi. Amerika Zaharlarni nazorat qilish markazlari assotsiatsiyasining ma'lumotlariga ko'ra, faqat 2008 yilda 1,6 milliondan ortiq bolalar zaharlanishi sodir bo'lgan, ishqoriy qizilo'ngach kuyishlari 18-46% hollarda turli xil uy kimyoviy moddalarini iste'mol qilgandan keyin qayd etilgan

Kalit so'zlar: Sirka kislota, Oshqozon-ichak trakti, qizilo'ngach, ingichka ichak

Kirish. Sirka kislotsi bilan hazm nayining kimyoviy kuyishda moddani tasodifiy yoki o'z joniga qasd qilish natijasida oshqozon-ichak va nafas olish yo'llari kuyishi mumkin. Voqeа sodir bo'lgan holatlar va moddaning kimyoviy tabiat shikastlanish darajasini va toksikologik xavfni aniqlaydi. Kimyoviy kuyishdan keyingi dastlabki davr laringeal shish, qizilo'ngach, oshqozon va ichakning teshilishi, oshqozon-ichakdan qon ketishi va pankreatit ehtimoli bilan bog'liq [1,3].

Hozirgi vaqtida hazm nayi turli darajadagi kimyoviy kuyishlari juda dolzarb tibbiy, ijtimoiy va iqtisodiy muammodir. Yuqori oshqozon-ichak traktining og'ir kuyishi katta yoshli bemorlarning 10-33% ga ta'sir qiladi, o'lim darjasasi 10% gacha kuzatiladi. [4].

Ikki yosh guruhi eng katta xavf ostida: 2-6 yoshli bolalar, ular beixtiyor uy tozalash vositalarini iste'mol qiladilar va kuydiruvchi moddalar yutishning 80% gacha, lekin odatda engil jarohatlarga ega; va o'z joniga qasd qilish niyatida kuchli korroziv moddalarni ishlatadigan va jiddiy, hayot uchun xavfli jarohatlar bilan murojaat qilgan 30-40 yoshli kattalar [6].

Tadqiqotning maqsadi.

Oq zotsiz kalamushlar hazm nayi turli darajadagi sirka kislotsi ta`sirida kuyishida ingichka ichak devoridagi motfologik o`zgarishlarni aniqlash, kimyoviy moddaning nojo'ya ta'sirini kamaytirish maqsadida qora sedana yog'i yordamida korreksianing biologik usulini qo'llash.

Sirka kislotsasi bilan kimyoviy kuyishida ingichka ichakdagi morfologik o‘zgarishlar kam o‘rganilganligi sababli tajriba sharoitida kimyoviy kuyishni chaqirtirilib, uning natijasidagi ingichka ichakning morfologik xususiyatlari o‘rganildi va tahlil qilindi.

I guruhi nazorat guruhi (n=20) 3 oylik nazorat guruhidagi oq zotsiz kalamushlarning qorin bo`shlig`i ochilganda ingichka ichak uch qismidan iboratligini ko`rdik. O`n ikki barmoqli ichak, och ichak, yonbosh ichak. Ichak vorsinkalarini va kriptalarini ingichka ichak shilliq qavatining asosiy tarkibiy va funksional birliklari hisoblanadi.

Nazorat guruhidagi 3 oylik kalamushlarda o'n ikki barmoqli ichakning barcha tarkibiy qismlari to`liq rivojlangan. O'n ikki barmoqli ichakning devorining qalinligi o'rtacha- 814,71 mkm gacha, shilliq qavatning qalinligi o'rtacha-671,97 mkm, vorsinka balandligi o'rtacha-342,83 mkm, vorsinka epiteliotsitlarining balandligi o'rtacha-28,36 mkm kriptalar chuqurligi o'rtacha 228,27 mkm, kripta epiteliotsitlari soni o'rtacha- 97,51 mkm, kripta epiteliotsitlari balandligi o'rtacha- 18,86 mkm, mushak qavatining qalinligi o'rtacha-139,62 mkm, mushak qavatining ichki qalinligi o'rtacha-89,91 mkm, mushak qavatining tashqi qalinligi o'rtacha-42,68 mkm.

II-guruhi 6% li sirka kislota yuborilgan laboratoriya hayvonlarining barchasida (100,0%, n=20) ingichka ichakning morfologik o‘zgarishlarga uchragan.

Jumladan ichak vorsinkalarida va ichak kriptalarida o‘zgarishlar, ichki sirkulyar qavat biroz kengaygan holatdaligi, siyrak tolali qo‘shuvchi to‘qima kattalashganligi, limfold tuguncha (peyer pilakcha) giperplaziya holatidaligi kuzatildi.(6-rasm) O'n ikki barmoqli ichak devorining qalinligi o'rtacha- 810,70 mkm gacha, shilliq qavatning qalinligi o'rtacha- 669,72 mkm, vorsinka balandligi o'rtacha-339.93 mkm, vorsinka epiteliotsitlarining balandligi o'rtacha- 27,42 mkm, kriptalar chuqurligi o'rtacha- 227,93 mkm, kripta epiteliotsitlari soni o'rtacha-96,67 mkm, kripta epiteliotsitlari balandligi o'rtacha- 17,93 mkm, mushak qavatining qalinligi o'rtacha- 131,9 mkm, mushak qavatining ichki qalinligi o'rtacha-89,31 mkm, mushak qavatining tashqi qalinligi o'rtacha-42,54 mkm kamayganligini ko`ramiz.

III-guruhi 6% li sirka kislota yuborilgan so`ng o`ttiz kun mobaynida sedana yog`i bilan korreksiya qilindi laboratoriya hayvonlarining barchasida (100,0%, n=12) o`n ikki barmoqli ichakning morfologik o‘zgarishlarga uchraganligi aniqlandi (10-11 rasmlar). Jumladan ichak vorsinkalarida va ichak kriptalarida o‘zgarishlar, ichki sirkulyar qavat kengaygan holatdaligi, siyrak tolali qo‘shuvchi to‘qima kattalashganligi, limfold tuguncha (peyer pilakcha) giperplaziya holatidaligi kuzatildi.

O'n ikki barmoqli ichakning devorining qalinligi 815,22 mkm gacha, shilliq qavatning qalinligi 672,33 mkm, vorsinka balandligi 342,92 mkm, vorsinka epiteliotsitlarining balandligi 28,38 mkm, kriptalar chuqurligi 228,30 mkm, kripta epiteliotsitlari soni 96,92 mkm, kripta epiteliotsitlari balandligi 18,90 mkm, mushak

qavatining qalinligi 140,12 mkm, mushak qavatining ichki qalinligi 89,98 mkm, mushak qavatining tashqi qalinligi 42,72 mkm kattalashganligini ko`ramiz.

Xulosa Tajribaviy oshqozon ichak traktining kimyoviy kuyishlarida ingichka ichakda quyidagi morfologik o‘zgarishlar jumladan, ichak vorsinkalarining o‘choqli atrofiyanishi, kriptalar va vorsinkalarning distrofik va nekrobiotik o‘zgarishlari, muskul qavatning biroz kichrayishi, ichak kriptalarida yallig‘lanish belgilarining paydo bo‘lganligi, ichki sirkulyar qavatda ham yallig‘lanish belgilari va shish, siyrak tolali qo‘suvchi to‘qima bir oz o‘sgan, shilliq osti qavatida infiltratsiya belgilari aniqlandi. Ularning aniqlanishi ingichka ichakda distrofik o‘zgarishlar, yallig‘lanish jarayoni kechayotganidan dalolat beradi.

Adabiyotlar

1. [Ku Cu K.A., Topaloglu N, Yildirim S, Tekin M, Erbas M, Kiraz HA, Erdem H, Özkan A. Protective effects of ursodeoxycholic acid in experimental corrosive esophagitis injury in rats. Ann Ital Chir. 2017;88:82-86. <https://doi.org/10.4172/2167-065X.1000128>]
2. Ozbayoglu A, Sonmez K, Karabulut R, Turkyilmaz Z, Poyraz A, Gulbahar O, Basaklar AC. Effect of polapre-zinc on experimental corrosive esophageal burns in rats. Dis Esophagus. 2017 Nov 1;30(11):1-6. <https://doi.org/10.1093/dote/dox104>].
3. Chirica M., Bonavina L., Kelly M. et al. Caustic ingestion. Lancet 2017 May
4. Arici MA, Ozdemir D, Oray NC, et al. Evaluation of caustics and household detergents exposures in an emergency service. Hum Exp Toxicol. 2012;31(6):
5. Rafeey M, Ghojazadeh M, Sheikhi S, Vahedi L. Caustic Ingestion in Children: a Systematic Review and Meta-Analysis. J Caring Sci. 2016 Sep 1;5(3):251-265. doi: 10.15171/jcs.2016.027. PMID: 27757390; PMCID: PMC5045959.
6. Balderas A.B., Aceves M.R., Ramírez P.C. Endoscopic findings of the digestive tract secondary to caustic ingestion in children seen at the Emergency Department Arch Argent Pediatr 2018;116(6):409-414
7. «Медицинская токсикология» Национальное руководство под редакцией акад. РАМН Е.А. Лужникова. Москва. Издательство: группа ГЭОТАР - Медиа, 2012 – С.638-657.
8. Rafeey M, Ghojazadeh M, Sheikhi S, Vahedi L. Caustic Ingestion in Children: a Systematic Review and Meta-Analysis. J Caring Sci. 2016 Sep 1;5(3):251-265. doi: 10.15171/jcs.2016.027. PMID: 27757390; PMCID: PMC5045959.
9. Демидчик Л. А. и др. Окисленные белки в крови больных с острым отравлением уксусной кислотой //Международный журнал прикладных и фундаментальных исследований. – 2018. – №. 5-1. – С. 82-86.
10. Muacevic A., Adler J. R. Clinico-epidemiological Characteristics of Corrosive Ingestion: A Cross-sectional Study at a Tertiary Care Hospital of Multan, South-Punjab Pakistan. Cureus. 2018 May;10(5):e2704. <https://doi.org/10.7759/cureus.2704>)
11. Kucuk G., Gollu G., Ates U., Cakmak Z.A. et al. Evaluation of esophageal injuries secondary to ingestion of unlabeled corrosive substances: pediatric case series.

- Archivos argentinos de pediatría. 2017;115(2):E85-E88.
<https://doi.org/10.5546/aap.2017.eng.e85> 9 Ku Cu KA
- 12.Хамроева Лола Ризоевна. (2023). Морфологические Измнение Стенки Тонкой Кишки При Ожогах Пищеварительного Тракта Различной Степени. SCIENTIFIC JOURNAL OF APPLIED AND MEDICAL SCIENCES, 2(12), 593–596. Retrieved from https://sciencebox.uz/index.php/amaltibbiyot/article/view/8967
- 13.Rizoyevna, K. L. (2024). MORPHOLOGICAL CHANGES IN THE WALL OF THE STOMACH IN CHEMICAL BURNS OF THE DIGESTIVE TRACT OF VARIING DEGREES. EUROPEAN JOURNAL OF MODERN MEDICINE AND PRACTICE, 4(4), 184-187.
- 14.Rizoyevna, K. L. (2024). Changes Observed in Acetic Acid Burns of the Gastrointestinal Tract. Research Journal of Trauma and Disability Studies, 3(4), 282-285.
- 15.Rizoyevna, H. L. (2024). HAZM NAYI TURLI DARAJADAGI KIMYOVİY KUYİSHLARIDA İNGİCHKA İÇHAK DEVORİDAGI MORFOLOGIK O ‘ZGARİSHLAR. JOURNAL OF HEALTHCARE AND LIFE-SCIENCE RESEARCH, 3(4), 284-287.
- 16.Rizoyevna, H. L. (2023). Bosh Miya Shikastlanishida Miya Va O'pkaning O'zaro Ta'sirini O'rganish. AMALIY VA TIBBIYOT FANLARI ILMİY JURNALI, 2(10), 93-98 18. Rizoyevna, K. L. (2023).
- 17.17.Morphological Changes in the Lungs in Brain Injuries. American Journal of Pediatric Medicine and Health Sciences (2993-2149), 1(9), 188-190.
- 18.Muzaffarovna, K. S., Ruzimurodovna, M. F., & Rizoyevna, K. L. (2023). Specific Features of Stomatitis, Causes and Treatment. Journal of Advanced Zoology, 44(S5), 2177-2183.
- 19.Travmatik Miya Shikastlanishida O'tkir Respirator Distress Sindromning Kechishi H.L. Rizoyevna - Miasto Przyszości, 2023 21 Ризоевна Х.Л. (2024).
- 20.Морфологические Измнения Стенок Желудочно Кишечного Тракта После Ожогов Уксусной Кислотой. Research Journal of Trauma and Disability Studies, 3(4), 206-209.